

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 141 (1740), 2026-yil 14-iyul, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



BEKOBOD – YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLIGI, TARAQQIYOTINING PO‘LATDEK MUSTAHKAM POYDEVORI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-iyul kuni Toshkent viloyatining Bekobod shahriga tashrif buyurib, O‘zbekiston metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan ishlar va yangi loyihalar bilan tanishdi. Shuningdek, mamlakatimizda qora metallurgiya sanoatini yanada rivojlantirish yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.



Bekobod nafaqat Toshkent viloyati, balki O‘zbekiston sanoatining yirik tayanch nuqtalaridan biri. Mamlakatimiz metallurgiya tarmog‘ining shakllanishi va taraqqiyotida alohida o‘rin tutadigan strategik shahar. Yillar davomida ishlab chiqarish quvvatlari, muhandislik salohiyati hamda malakali kadrlar maktabi bilan tanilgan Bekobod shahri bugun mutlaqo yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ymoqda. 110 ming yurtdoshimiz istiqomat qilayotgan hududda endilikda sanoat korxonalari modernizatsiyasi, yangi investitsiya loyihalari bilan bir qatorda

zamonaviy infratuzilma, qulay transport tizimi, aholi hayot sifatini oshirishga qaratilgan yechimlar ham taraqqiyotning muhim mezoniga aylangan.

Ayniqsa, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, aholining erkin harakatlanishi uchun zamonaviy transport infratuzilmasini yaratish masalasi doimiy diqqat markazida. Temir yo‘l transportini izchil rivojlantirish, ichki yo‘nalishlarda qatnovlar geografiyasini kengaytirish, yo‘lovchilar uchun xavfsiz, tezkor va qulay xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, xususan, yirik

sanoat markazlarini poytaxt bilan zamonaviy transport orqali bog‘lash ishlab chiqarish, ta‘lim va xizmatlar sohasidagi integratsiyani yanada kuchaytirishga yo‘l ochmoqda.

Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Bekobod shahriga Toshkentdan elektropoyezdda yetib kelgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlar

Prezidentimizning 2025-yil 27-dekabrda “2030-yilga qadar temir yo‘l transportida mahalliy yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlarini oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi qarori asosida izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatga muvofiq, hududlarda transport infratuzilmasi bosqichma-bosqich yangilanib, mahalliy qatnovlar kengaytirilmoqda, harakat tarkiblari yangilanyapti.

Bekobod temir yo‘l vokzalida davlatimiz rahbariga poytaxt va mazkur shaharni bog‘lovchi yangi yo‘nalishda bajarilgan ishlar haqida axborot berildi. Uzunligi 192 kilometr bo‘lgan Toshkent — Bekobod temir yo‘lida kuniga qariyb ming, yiliga esa 300 ming yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish rejalashtirilgan. Ushbu yo‘nalishda olti vagonidan iborat, 586 yo‘lovchini sig‘dira oladigan zamonaviy elektropoyezd soatiga 120 kilometr gacha tezlikda harakatlanadi. Bu, ayniqsa, har kuni ish va o‘qish maqsadida poytaxt hamda Bekobod o‘rtasida qatnovchi fuqarolar uchun qimmatli vaqtni tejash, qo‘shimcha qulayliklardan bahramand bo‘lish imkoniyati demakdir.

Yangi elektropoyezd vagonlari konditsioner va isitish tizimlari, yumshoq o‘rindiqlar, USB quvvatlash nuqtalari, Wi-Fi tarmog‘i, videokuzatuv vositalari hamda elektron axborot tablolari bilan jihozlangan. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus ko‘targichlar, velosipedlarni joylashtirish imkoniyati ham nazarda tutilgan. Bu kabi o‘ziga xos yechimlar orqali esa, o‘z navbatida, transport xizmatlari zamonaviy talablarni darajasiga olib chiqilib, aholining barcha qatlamlari uchun qulay va inklyuziv muhit yaratilaypti.

Tezkor elektropoyezdning qatnovga qo‘yilishi avtomobil yo‘llaridagi transport yuklarni kamaytirish, shuningdek, ekologik toza transport ulushini oshirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Prezidentimiz tashrif davomida mazkur jihatlar to‘xtalib, temir yo‘l infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yo‘lovchilar uchun yaratilayotgan sharoitlarni izchil yaxshilash,

tarmoqlarni elektrlashtirish va temir yo‘llarga tutash hududlarni obodonlashtirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi. Vokzal infratuzilmasini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda yo‘lovchilar harakatini samarali tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari O‘zbekiston metallurgiya kombinatida barpo etilgan yangi quyuv-prokatlash majmuasini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi. Mamlakatimiz yetakchisi tantanali marosimda kombinat jamoasi, mehnat faxriylari hamda xorijlik hamkorlarni ushbu muhim voqea bilan tabriklab, metallurgiya tarmog‘ini rivojlantirish iqtisodiyotimizning strategik yo‘nalishlaridan biri ekanini alohida ta’kidladi.

Keyingi yillarda kon-metallurgiya sohasini yangi texnologik bosqichga olib chiqish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazilmoqda. O‘tgan o‘n yil davomida sohaga qariyb 2 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilib, 31 ta yirik ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi. Xususi sektor uchun yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 150 tadan oshdi. Bunday o‘zgarishlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Mahalliy metall mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yiliga 3 million tonnaga, qiymati esa 23 trillion so‘mga yetdi. Holbuki, 2016-yilda tarmoqda 800 ming tonna, qiymati 1,5 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan edi.

Metallurgiya tarmog‘ining bugungi taraqqiyoti mahsulot nomenklaturasi sezilarli darajada kengaygani bilan ajralib turadi. Ilgari asosan qurilish sohasi ehtiyojlari uchun metall prokat ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bugungi kunda mashinasozlik, elektrotexnika, mudofaa sanoati va energetika kabi jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlar uchun 80 turdagi yangi mahsulot tayyorlanmoqda.

Prezidentimiz metallurglar mehnati yangi O‘zbekistonning zamonaviy qiyofasini yaratish, yirik bunyodkorlik loyihalarini ro‘yobga chiqarish va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojida muhim o‘rin tutayotganini alohida qayd etdi.

Davlatimiz oldiga qo‘yilgan ulkan iqtisodiy maqsadlar metallurgiya sanoati zimmasiga ham yangi vazifalarni yuklamoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish, 2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollarga yetkazish, kelgusi besh yilda iqtisodiyotga 180 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish, 27 milliard dollarlik ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirish kabi ulkan bunyodkorlik rejalari metall mahsulotlariga talabni bugungidagiga nisbatan 1,5 barobar oshiradi. Shu bois, 5,5 mingdan ziyod fidoyi mehnat jamoasiga ega O‘zbekiston metallurgiya kombinatining o‘rni va mas’uliyati yanada ortmoqda.

Yangi quyuv-prokatlash majmuasi ana shu istiqbolli vazifalarni bajarishda muhim tayanch bo‘ladi. Energiyatejamkor texnologiya va zamonaviy raqamli yechimlar asosida bunyod etilgan majmua mehnat unumdorligini va mahsulot sifatini oshirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashda yangi bosqichni boshlab beradi. Eng muhimi, loyiha yurtimiz tarixida issiq prokatlangan po‘lat listlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan birinchi majmuadir. Uning ishga tushirilishi natijasida yiliga 8 trillion so‘mlik 1 million tonna issiq prokatlangan po‘lat list ishlab chiqariladi, Toshkent va Samarqand metallurgiya zavodlarining prokat listlarga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qoplanadi hamda 1200 ta yuqori daromadli ish o‘mi yaratiladi.

Davomi 2-betda

Shukuh

HALOLLIKNING HALOVATI

“O‘zmetkombinat”ga bag‘ishlov

Biz dunyoga ko‘zgu tutib yashagaymiz,
Dil niyatin ezgu tutib yashagaymiz,
Har luqmani halolidan oshagaymiz,
Halollik bu — ahdimizga kafolatdir,
Xalqimizning birligiga dalolatdir!

Ona Vatan, ota makon — O‘zbekiston,
Yurt tuprog‘i bizlar uchun tandagi jon,
Mayli, oltin, mayli temir — borligi shon,
Tillo tuproq elim uchun saodatdir,
Xalqimizning birligiga dalolatdir!

Inshaalloh, har ishda bor ibratimiz,
Bekobodda metalzavod qudratimiz.
Biz ekamiz, biz quramiz — yaratamiz,
Bu zahmatning ortidagi farog‘atdir,
Xalqimizning birligiga dalolatdir!

Qattol urush kechgan og‘ir yillar qurgan,
Vatan degan, tinchlik degan dillar qurgan,
Ish boshida o‘zbek otlig‘ millat turgan,
“Metkombinat” el-yurt uchun matonatdir,
Xalqimizning birligiga dalolatdir!

Har insonning rizqi-ro‘zi mehnatida,
O‘n mingdan ko‘p jamoaning ish xatida.
Oila to‘q, yurt rivoji fikratida,
Manglay teri elga tutgan halovatdir,
Xalqimizning birligiga dalolatdir!

O‘zbekiston yangi zamon chirog‘idir,
Ko‘hna tarix, qadim dardlar firog‘idir.
Boshimizda birligimiz bayrog‘idir,
Bu ahddagi, bu taxtdagi salobatdir,
Xalqimizning birligiga dalolatdir!

Bizni oldga chorlaguvchi tiniq havas,
Hali ko‘plar kelolmagay bizlarga bas.
Metall zavod pechidagi alangamas,
Prezident ko‘ksidagi haroratdir,
Xalqimizning birligiga dalolatdir!

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri



Yangi O‘zbekiston ruhi



TINCHLIKPARVAR VA XALQPAPVAR TASHQI SIYOSATNING YUKSAK E‘TIROFI

Uch ming yillik davlatchilik tariximiz dalolat beradiki, har bir buyuk taraqqiyot bosqichi xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo‘ygan, yuksak siyosiy iroda va tarixiy mas’uliyatni zimmasiga olgan kuchli rahbarlar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Dunyoda ishonch inqirozi, geosiyosiy taranglik va xavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlar tobora kuchayib borayotgan bugungi tahlikali sharoitda Alisher Navoiyning asrlar osha yangrayotgan qishidagi hikmati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

“Olam ahli bilingizkim,
ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizgakim,
erur yorlig‘ ish”.

Ushbu bitiklar insonparvarlik, o‘zaro ishonch va hamjihatlik g‘oyalarni ulug‘laydi. Bugun yurtimizda “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida yuritilayotgan ichki va tashqi siyosat aynan shu ezgu falsafa bilan hamohangdir.

Prezidentimizning global muloqotni ta’minlash sa’y-harakatlari falsafasi insoniyat oldida turgan dolzarb masalalarga yechim topish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, o‘zaro ishonch va bag‘rikenglik muhitini qaror

toptirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish kabi ezgu g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq.

Mamlakatimizning mazkur g‘oyalarga asoslangan tashqi siyosati ochiqlik, o‘zaro ishonch, teng huquqli muloqot, vazmin va pragmatik hamkorlik tamoyillariga tayanadi.

Davomi 3-betda



BEKOBOD – YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLIGI, TARAQQIYOTINING PO‘LATDEK MUSTAHKAM POYDEVORI

Boshlanishi 1-betda

Tantanali marosimda Prezidentimiz majmua qurilishida ishtirok etgan quruvchi va muhandislar, texnolog va mashinistlar, ishchi-xodimlar, mehnat faxriylari hamda xorijlik hamkorlarga samimiy minnatdorlik bildirdi. Shu bilan birga, kombinatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari ham belgilab berildi. Xususan, korxonaning xomashyoga ehtiyojini mahalliy resurslar hisobidan ta‘minlash eng muhim vazifa ekanini aytdi.

Mamlakatimiz hududlarida 1,5 milliard tonna temir rudasi zaxirasi mavjudligi ta‘kidlanib, yaqin uch-to‘rt yilda Tebinbuloq konini ishga tushirish

mehnat jamoalari uchun ibrat ekani alohida urg‘ulandi.

Davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, yangi quyuv-prokatlash majmuasi faoliyatiga tantanali ravishda start berdi hamda soha faxriylari, kombinat xodimlari va xorijlik hamkorlar bilan samimiy muloqot qildi.

Prezidentimiz O‘zbekiston metallurgiya kombinati quyuv-prokatlash majmuasining yagona boshqaruv pulti orqali metalni prokatlash jarayonlarini ko‘zdan kechirdi. Zamonaviy raqamli yechimlar asosida tashkil etilgan boshqaruv markazi ishlab chiqarishning barcha asosiy bosqichlarini yagona tizim orqali muvofiqlashtirish va texnologik jarayonlar uzluksizligi va

foydalanilgan va ularda 9 xodim mehnat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda yagona boshqaruv tizimi orqali butun jarayonni atigi 3 mutaxassis nazorat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu tizimni yanada takomillashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratib, yagona boshqaruv platformasiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali majmuaning barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish zarurligini ta‘kidladi. Zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng tatbiq etish korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlash bilan birga mahsulot sifati va mehnat unumdorligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Majmuaning texnologik imkoniyatlari bilan tanishuv chog‘ida uskunalar xavfsizligi va tezkorligi bo‘yicha ushbu loyiha Markaziy Osiyoda o‘ziga xos hamda muqobili yo‘q ekanini bildirildi. Xususan, ishlab chiqarish jarayonini to‘xtatmagan holda, inson omili ishtirokisiz asosiy vallarni avvalgi 30-40 daqiqa o‘miga atigi 5-7 daqiqada avtomatik ravishda almashtirish imkoniyati yaratilgani zamonaviy texnologik yechimlarning muhim afzalliklaridan biridir.

Prezidentimiz list prokatidan tayyorlangan mahsulotlar namunalarini ko‘zdan kechirdi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan taklif va masalalar faqat ushbu tarmoqqa tegishli emas. Ular mamlakatimiz kelajagi, iqtisodiyotimiz barqarorligi, sanoatimiz salohiyati yo‘lidagi eng muhim va kerakli tashabbuslardir. Masalan, qora metall aylanmasi bilan bog‘liq barcha jarayonlar elektron platforma orqali real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Sog‘lom raqobat muhiti va narx mexanizmlarini ta‘minlash, ta‘sirchan nazorat beranizmlarini o‘rnatish maqsadida alohida Loyiha ofisi tashkil etiladi. 1-avgustdan “E-lom” elektron platformasi ishga tushirilib,

Mamlakatimiz yetakchisining Bekobodga tashrifining asosiy voqealaridan



orqali yiliga 1 million tonna po‘lat ishlab chiqarish, Surunota konidagi ma‘danlarni boyitish hisobiga esa yiliga 600 ming tonna temir xomashyosi olish yo‘lga qo‘yilishi ma‘lum qilindi. Ushbu xomashyoni chuqur qayta ishlash maqsadida kombinatda qiymati 180 million dollarlik zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi boshlanadi.

Kelgusi uch yilda 30 million dollar investitsiya hisobiga po‘lat sharlar ishlab chiqarish liniyalari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, ularning quvvati 250 ming tonnadan 500 ming tonnagacha oshiriladi. Kombinats hududida O‘zbekiston

samaradorligini ta‘minlash imkonini bermoqda.

Keyingi yillarda kombinatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha izchil ishlar bajarildi. Natijada kombinatning sof foydasi 2017-yildagi 14 million dollardan 2025-yilga kelib, 23 million dollarga yetdi.


Prezidentimiz 2018-yil 29-avgust kuni Bekobod shahriga tashrifi chog‘ida aynan mazkur quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi loyihasiga tamal toshini qo‘ygan edi. Umumiy qiymati 839 million dollarni tashkil qiladigan majmua 18 gektar maydonda barpo

“**Mamlakatimiz hududlarida 1,5 milliard tonna temir rudasi zaxirasi mavjudligi ta‘kidlanib, yaqin uch-to‘rt yilda Tebinbuloq konini ishga tushirish orqali yiliga 1 million tonna po‘lat ishlab chiqarish, Surunota konidagi ma‘danlarni boyitish hisobiga esa yiliga 600 ming tonna temir xomashyosi olish yo‘lga qo‘yilishi ma‘lum qilindi.**”

ekologik texnologiyalar sanoat parki tashkil etilishi ham ko‘zda tutilgan. Joriy yilning o‘zida mazkur sanoat parkida katta diametrlilik quvurlar, ko‘tarma kranlar va filtrlash uskunalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, umumiy qiymati 70 million dollar bo‘lgan 6 ta loyiha boshlanadi. Ularning amalga oshirilishi natijasida yana 660 ta yuqori daromadli ish o‘rni ochiladi.

etildi. Kelgusida bu yerda mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2 million tonnaga yetkazish, qo‘shimcha ravishda 1,04 million tonna o‘ramli po‘lat list prokatini ishlab chiqarish hamda kombinatdagi jami ish o‘rinlari sonini 7 mingtaga yetkazish rejalashtirilgan.

Majmuada Italiyaning “Danieli” kompaniyasi tajribasi asosida ilk bor uzluksiz po‘lat quyish uskunasi boshqa



Mamlakatimiz yetakchisi metallurgiya og‘ir, shu bilan birga, sharaflilik kasb ekanini ta‘kidlab, kombinat jamoasining mashhaqqatli va fidoyi mehnati yuksak ehtiromga sazovorligini qayd etdi. Salkam bir asrlilik tarixga ega korxonada ustoz-shogird an‘anasi asosida shakllangan tajriba maktabi ko‘plab

barcha texnologik jihozlar bilan integratsiya qilinib, yagona pult orqali boshqarilmoqda. Mazkur texnologik yechim ishlab chiqarish jarayonlarini markazlashtirilgan holda nazorat qilish, uskunalar faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini yaratadi. Avvalgi texnologiyalarda 4-5 ta boshqaruv pultidan



biri, shubhasiz, qora metallurgiya sanoatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘ldi. Negaki yig‘ilish mavzusi dolzarb, ko‘tarilgan masalalar e‘tiborga molik. Qora metallurgiya temir, cho‘yan, po‘lat va ularning qotishmalarini qazib olish, qayta ishlash va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan og‘ir sanoatning asosiy tarmog‘idir. Qurilish, mashinasozlik, avtomobilsozlik va infratuzilma kabi sohalar uchun boshlang‘ich xomashyo va tayyor mahsulotlar aynan shu tarmoq rivojiga bog‘liq. So‘nggi yillarda mamlakatimizda qurilish-bunyodkorlik ishlari ko‘lami tobora ortib borayotgani, mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati jadal taraqqiy etayotganini inobatga olsak, qora metallurgiya tarmog‘i ahamiyatini yanada chuqurroq anglay boshlaymiz.

Biz 2030-yilda yalpi ichki mahsulotni 240 milliard dollarga yetkazishni mo‘ljallaganmiz. Buning uchun esa 8-9 foizli o‘shish talab etiladi. Demak, qora metallurgiya, umuman, metallurgiya sanoatiga e‘tibor ayni zarurat.

Shu bois, yig‘ilishda tarmoqda importga bog‘liqlik, tannarx va energiya sarfi yuqoriligi, raqamlashtirish va sun‘iy intellektni joriy qilish borasidagi ishlarda kamchiliklar borligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bu jarayon, ayniqsa, dunyoda kuzatilayotgan ziddiyatlar yoki tashish muammolari mavjud davrda juda muhim.

Qolaversa, so‘nggi o‘n yilda mamlakatimizda po‘lat list, navli prokat, quvurlar va metall konstruksiyalarga ehtiyoj

3 karra ortib, 5,5 million tonnaga yetdi. Yangi qurilayotgan atom elektr stansiyasi, to‘rtinchi mis boyitish fabrikasi va yangi mis eritish zavodining o‘ziga 2,5 million tonnaga yaqin po‘lat list hamda armatura zarur.

Kelgusi besh yil davomida 180 milliard dollarlik yangi quvvatlar ishga tushiriladi. 27 milliard dollarlik infratuzilma loyihalari amalga oshirilib, 800 ming xonadonli ko‘p qavatli uy-joylar barpo etiladi. Natijada metall mahsulotlariga yillik ehtiyoj 2030-yilgacha 1,5 barobar ko‘payib, 8 million tonnadan oshadi. Bular, tabiiyki, mamlakatimizning yirik ishlab chiqaruvchisi — Bekobod metallurgiya kombinati jamoasi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Zamon bilan hamqadam bo‘lishni, ilg‘or texnologiyalarni amalda qo‘llash ishlarini jadallashtirishni taqozo etadi.

Ayni paytda kombinatda metall prokatning 40 foizi ikkilamchi metall, 60 foizi import hisobidan ishlab chiqarilmoqda. Respublikamiz bo‘yicha har yili 700 ming tonna qora metallolom kombinatga topshirilayotgan bo‘lsa-da, yana 500 ming tonnasi xufiyona aylanmada qolmoqda.

Metallurgiya sohasida 150 ga yaqin o‘rta va kichik xususiy korxona faoliyat yuritmoqda. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan taklif va masalalar faqat ushbu tarmoqqa tegishli emas. Ular mamlakatimiz kelajagi, iqtisodiyotimiz barqarorligi, sanoatimiz salohiyati yo‘lidagi eng muhim va kerakli tashabbuslardir.

Masalan, qora metall aylanmasi bilan bog‘liq barcha jarayonlar elektron platforma orqali real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Sog‘lom raqobat muhiti va narx mexanizmlarini ta‘minlash, ta‘sirchan nazorat beranizmlarini o‘rnatish maqsadida alohida Loyiha ofisi tashkil etiladi. 1-avgustdan “E-lom” elektron platformasi ishga tushirilib,

energiya sarfini 15 foiz, texnik xizmat xarajati va texnologik uzilishlarni 20 foiz qisqartirish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi metallurgiya sanoatiga “aql markazi” sifatida belgilandi. Shuningdek, sohaga Navoiy va Olmaliq kombinatlarining ilmiy markazlari, texnologik metallar kombinatining O‘zbekiston — Koreya ilmiy-texnologik markazi, Toshkent davlat texnika universiteti, Navoiy konchilik va texnologiyalar universiteti, Olmaliq texnika instituti hamda Moskva po‘lat va qorishmalar institutining Olmaliq filiali biriktirildi. Ular bozorni o‘rganadi, loyihalarni yo‘naltiradi, kadrlar ehtiyojini tahlil qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, sanoatga ilm uyg‘unlashadi.

Yangi o‘quv yilidan Bekobod metallurgiya kombinatida qora metallurgiya bo‘yicha kafedra ochilib, dual ta‘lim yo‘lga qo‘yiladi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazida shu sohaga tegishli muammolarni bir joyga jamlaydigan raqamli platforma ishga tushiriladi. Ilmiy ishlarni moliyalashtirish va amaliyotga joriy qilish bo‘yicha venchur fond tashkil etiladi.

Qisqasi, endi bu yo‘nalishda ham ishlar yangicha tus olib, davrga mos loyihalar ro‘yobga chiqariladi. Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, sohada “texnologik sakrash” bo‘ladi.

Yig‘ilishda soha mutasaddilari va hududlar rahbarlari hisobotlari ham tinglandi.

Bekobod shahriga tashrifning navbatdagi manzili Do‘stlik mahallasi bo‘ldi. Mamlakatimiz yetakchisi ushbu mahalla va Xosyoz kanali bo‘yida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Bekobodliklar yaxshi biladi, ilgari Xosyoz kanalining bo‘yi qarovsiz, tartibsiz bir ahvolda edi. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar, joylarda infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan islohotlar sabab Xosyoz kanali bo‘yi eng go‘zal go‘shalardan biriga aylandi.

Ushbu manzilni kompleks rivojlantirish uchun master-reja doirasida piyodalar uchun 3 kilometr uzunlikda maxsus yo‘lak va 5,4 kilometr mustahkam to‘siqlar

Hududi 28 gektar bo‘lgan Do‘stlik mahallasida hozir 33 ta ko‘p qavatli uy, xususiy maktabgacha ta‘lim tashkiloti, futbol maydoni, 16 ta sport va bolalar maydonchasi va kutubxona bor. Bularni birma-bir ta‘kidlayotganimizdan muddao shuki, mahallada yoshlarning har jihatdan sog‘lom va barkamol bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Tadbirkorlarga e‘tibor sabab jamiyatimizda yaratuvchanlik ruhi bilan yashayotganlar safi kengayib bormoqda. Jumladan, joriy yilda tadbirkorlarning 1,1 milliard so‘m investitsiya mablag‘i hisobidan 10 ta xizmat ko‘rsatish obyekti, bitta umumiy ovqatlanish shoxobchasi ochildi. Natijada 25 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Qolaversa, tashabbuskorlar mablag‘lari hisobidan “Vatanparvar bog‘i” ham barpo qilindi. Unda harbiy texnika namunalari joylashtirilib, xizmat ko‘rsatish obyektlari qurildi.

Mahalla hududida Bekobod shahri muzeyi ham tashkil etilgan. Uni bunyod etishda “Tashabbusli budget” mablag‘lari hisobidan foydalanildi. Ya‘ni ushbu muzey xalq ovozi, ularning birdamlikdagi harakati evaziga vujudga keldi.

Xuddi shunday tashabbuslar, ezgu niyatlar tug‘iladigan yana bir manzil nuroniylar uchun yaratildi. Mahallada nuroniylar va mehnat faxriylarining dam olishi, uchrashuvlar o‘tkazib, davra suhbatlari qurishi, demakki, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar uchun yog‘och konstruksiyali yozgi shiypon qad rostlandi.

Prezidentimiz mahallada aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, mahalla faollari va mehnat faxriylari bilan samimiy muloqot qildi.

— Barcha ishlarimiz, barpo etilayotgan obyektlarimiz va loyihalarimiz, avvalo, aholiga xizmat qilishi, insonlar hayotini yaxshilashi kerak. Odamlar o‘z mahallasida, shahrida kechayotgan o‘zgarishlarni his qilishi, samarasini kundalik hayotida ko‘rishi kerak.

Har safar hududlarga kelganimizda insonlar yangi O‘zbekiston islohotlari nafasini, uning yangilanish va taraqqiyot shabodasini his etishi zarur. Bekobod shahri ham mehnatkash va

“**Keyingi yillarda kombinatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha izchil ishlar bajarildi. Natijada kombinatning sof foydasi 2017-yildagi 14 million dollardan 2025-yilga kelib, 23 million dollarga yetdi.**”



barpo etildi. Bundan tashqari, 2 ta ko‘prik qurildi. Shu kabi ishlar natijasida kanal bo‘yi barcha qulayliklarga ega zamonaviy ekologik hududga aylandi. Bu esa bekobodliklar quvonchiga sabab bo‘lmoqda. Negaki endi ular mahallasidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda bemalol sayr qilib, hordiq chiqarishi mumkin. Buning uchun loyiha doirasida sohil bo‘yida 27 ta yangi savdo va zamonaviy xizmat ko‘rsatish obyekti ochilgan. Muhimi, ushbu obyektlar sabab 167 ta yangi doimiy ish o‘rni yaratildi.

Davlatimiz rahbari bu yerda sport bilan shug‘ullanayotgan yoshlar bilan suhbatlashdi.

fidoyi aholisi, iqtidorli yoshlari, hayot tajribasiga ega nuroniylari bilan yanada obod va taraqqiy etgan maskanga aylanishi kerak.

Biz yoshlarimizning orzu intilishlari, nuroniylarimizning ezgu niyat va maqsadlari ro‘yobga chiqishi uchun barcha imkoniyatlarini safarbar etamiz, — dedi Prezidentimiz.

Shu bilan Prezidentimizning Bekobod shahriga tashrifi yakunlandi.

Dilshod ULUG‘MURODOV, Avazbek XUDOYQULOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

Yangi O‘zbekiston ruhi

TINCHLIKPARVAR VA XALQPARVAR
TASHQI SIYOSATNING YUKSAK E‘TIROFI

Bekzod NARIMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha
vakili (Ombudsman) o‘rinbosari,
yuridik fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Xususan, 2017-2025-yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 11 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bu esa yurtimizning xalqaro kun tartibini shakllanishda faol ishtirok etayotgan, global muammolar yechimiga aniq va amaliy taktiklar bera oladigan davlat sifatidagi nufuzini yaqqol namoyon etadi.

O‘zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi davlatlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish bilan cheklanmay, millionlab insonlarning kundalik hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan insonparvar diplomatiya modelini shakllantirdi. Bu esa mamlakatimizni xalqaro hamjamiyatning oddiy ishtirokchisi emas, balki mintaqaviy va global kun tartibini belgilashda faol tashabbuskor davlat sifatida e’tirof etilishiga xizmat qilmoqda.

Buyuk taraqqiyot yo‘li
e’tirofi

Prezidentimiz davlat tashrifi bilan Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida qator rasmiy tadbirlarda ishtirok etdi. Ushbu mamlakatga tashrif so‘nggi 23 yilda ilk bor amalga oshirilayotgani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Unda Shavkat Mirziyoyevning Gruziyaning oliy mukofotlaridan biri — “Oltin mo‘yna” ordeni bilan taqdirlanishi nafaqat ikki davlat munosabatlari tarixidagi muhim voqea, balki O‘zbekistonning keyingi yillarda xalqaro maydonda erishgan yuksak nufuzining navbatdagi amaliy e’tirof sifatida baholanmoqda.

Mazkur yuksak mukofot davlatimiz rahbariga O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili tomonidan topshirildi. Bu ikki mamlakat o‘rtasida shakllangan o‘zaro ishonch, strategik sheriklik va samimiy do‘stlikning ramziy ifodasi bo‘ldi. Xalqaro munosabatlar amaliyotida davlat tashriflari doirasida muzokaralar o‘tkazilishi, hukumatlararo hujjatlar va iqtisodiy bitimlar imzolaniishi tabiiy hol. Ammo davlatning eng oliy mukofoti bilan taqdirlanish mutlaqo boshqa mazmunga ega. Bu, eng avvalo, mamlakat rahbarining shaxsiy faoliyatiga, xalqaro siyosatdagi o‘rni va nufuziga hamda ikki davlat munosabatlari yangi bosqichga olib chiqishdagi xizmatlariga berilgan yuksak bahodir. Shu ma’noda, “Oltin mo‘yna” ordeni nafaqat Prezidentimizga, balki yangi O‘zbekiston siyosatiga, mamlakatning tanlagan taraqqiyot yo‘liga va xalqaro maydondagi konstruktiv pozitsiyasiga berilgan yuksak ishonch belgisidir.

Ordenning o‘zi ham chuqur ramziy ma’noga ega. 1998-yilda ta’sis etilgan “Oltin mo‘yna” Gruziya davlatchiligini rivojlantirish, mamlakat suveriteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda gruzin madaniyati, ilm-fani va san’atini targ‘ib etishga qo‘shgan alohida xizmatlari uchun beriladi. Uning nomi qadimgi yunon mifologiyasidagi oltin mo‘yna haqidagi afsona va tarixiy Kolxida o‘lkasi bilan bog‘liq bo‘lib, xalqaro obro‘ va sharaflarning yuksak ramzi hisoblanadi. Shuningdek, orden markazida joylashgan oltin mo‘yna tasviri, qalqon hamda “LABOR PRO GEORGIA” (“Gruziya

farovonligi yo‘lidagi mehnat”) shiori ham uning yuksak maqomga ega ekanini anglatadi.

Turli yillarda ushbu orden bilan Buyuk Britaniya Qirolligasi Yelizaveta II, Iordaniya Podshohi Abdulla II, Germaniya Kansleri Gernard Shryoder, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliyev kabi yirik davlat arboblari taqdirlangani mukofotning xalqaro nufuzini yanada yaqqol namoyon etadi. Endi ular qatoridan O‘zbekiston Prezidenti ham munosib o‘rin egallashi mamlakatimiz xalqaro nufuzi yuksalayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi holati jiddiy dinamikaga egaligi bilan ajralib turadi. O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 270 million AQSH dollariga yetdi, qo‘shma korxonalar va investitsiya loyihalari soni izchil ortib bormoqda. Mamlakatimizda Gruziyaning yetakchi moliya institutlaridan biri — TBC Bankning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilganini anglatadi.

Bugun Toshkent shahri bilan Tbilisi va Batumi shaharlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilgani, joriy yil mart oyida Toshkentda Gruziya madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazilgani xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro ishonch tobora mustahkamlanib borayotganining amaliy ifodasidir.

Shuningdek, Poti va Batumi portlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali transport-logistika hamkorligini kengaytirish, savdo hajmini yanada oshirish, farmatsevtika, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, energetika, transport, raqamli texnologiyalar va turizm sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha ulkan istiqbollar mavjud. Bu esa O‘zbekiston va Gruziya munosabatlari



strategik iqtisodiy va gumanitar sheriklikning yangi bosqichiga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu oliy mukofot joriy yil Mustaqilligimizning 35 yilligini nishonlayotgan yurtimizning tanlagan taraqqiyot yo‘li, tinchlikparvar tashabbuslari hamda xalqlar maydondagi tobora ortib borayotgan nufuziga bildirilgan yuksak ishonch va hurmatning yorqin ifodasidir.

Markaziy Osiyo birligining
me’mori

Markaziy Osiyoning so‘nggi yillarda shakllanayotgan yangi arxitekturasini tasodifiy hodisa emas. “Birlashgan — o‘zar”, deydi donishmand xalqimiz. Bu hikmatga asoslangan siyosatimiz faqat milliy manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanib qolmay, balki mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash, davlatlar o‘rtasidagi umumiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangi muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilmoqda.

Natijada mintaqamizda o‘nlab yillar davomida yig‘ilib qolgan ko‘plab muammolar konstruktiv muloqot va o‘zaro ishonch asosida hal etila boshladi.

2017-yilga qadar Markaziy Osiyoning ayrim davlatlari bilan chegaralar yopiqligi tufayli azaldan qarindosh-urug‘, quda-anda bo‘lib yashab kelgan xalqlarimizning bordi-keldisi o‘n yillab uzilib qolgandi, ayrim chegara hududlari esa hatto minalashtirilgandi.

“ Prezident Shavkat Mirziyoyev fenomeni Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi siyosiy muhitni shakllantirishga xizmat qilgan tinchliksevar va ochiq tashqi siyosatning samaradorligi hamda uning mintaqada o‘zaro ishonch va strategik sheriklikni qaror toptirishdagi yetakchi roli Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan yuksak e’tirof etilganida namoyondir.



Bu esa nafaqat davlatlararo munosabatlarga, balki oddiy insonlarning kundalik hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgandi.

Qisqa vaqt ichida Markaziy Osiyo muloqotdan haqiqiy sheriklikka o‘tib, hududiy masalalar tartibga solindi, chegaralar ochildi, energetika, transport va savdo sohalarida hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Bugun Markaziy Osiyo tobora hamjihatlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanib, institutsional arxitektura izchil kuchaymoqda.

Hozir mintaqaga kun tartibi tubdan o‘zgardi. Ilgari asosiy e’tibor chegaralar, xavfsizlik va

davr boshlangani, o‘zaro ishonch va tarixiy yaqinlikka tayangan hamkorlik modelining xalqaro e’tirofi sifatida muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda erishilgan kelishuvlar tufayli millionlab insonlar o‘zgarishlarni o‘z hayotida bevosita his qilmoqda. Bu esa davlatlararo munosabatlarning asosiy mezonini sifatida inson manfaati qaror topganini ko‘rsatadi.

2024-yilda Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tomonidan Shavkat Mirziyoyevga mamlakatning eng oliy davlat mukofoti — “Oltin qiron” (“Oltin burgut”) ordeni topshirildi. U ikki xalqning ko‘p asrlik do‘stligi va yaxshi qo‘shnichilik an‘analarini yanada mustahkamlash, O‘zbekiston va Qozog‘iston munosabatlari strategik sheriklikdan ittifoqchilik darajasiga olib chiqqan tarixiy sa’y-harakatlarga berilgan bahodir.

Mazkur mukofotlarning barchasi mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir-birini to‘ldiradi. Ularning zamirida tinchlik, do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va strategik sheriklik falsafasi mujassam.

Xalqlar o‘rtasidagi ishonch
ko‘prigi

Prezidentimizning tashqi siyosat falsafasida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar, eng avvalo, xalqlar taqdiri va inson manfaatlarini bilan o‘lchanadi. Shu bois, davlatimiz rahbarining har kungi faoliyatida davlatlar va xalqlar o‘rtasida ishonch ko‘priklarini barpo etish, millatlarni o‘zaro yaqinlashtirish hamda tinch, xavfsiz va farovon kelajakni ta’minlashga qaratilgan izchil sa’y-harakatlarni kuzatish mumkin. Yangi siyosiy tafakkur zamirida vatanga cheksiz muhabbat, xalq manfaatini har qanday qaror va tashabbusning bosh mezoniga aylantirgan yuksak davlatchilik mas’uliyati mujassam.

Bugungi kunda dunyoda ishonch inqirozi, geosiyosiy nizolar va xavfsizlikka tahdidlar kuchayib borayotgan murakkab sharoitda har bir rasmiy muloqot, har bir oliy darajadagi uchrashuv va har bir erishilgan kelishuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tashqi siyosatimiz nafaqat O‘zbekiston milliy manfaatlarini ta’minlashga, balki turli davlatlar va xalqlar o‘rtasida uzoq muddatli ishonch muhitini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Tashqi siyosiy muloqot qadalgan nihol kabiidir. Uning samarasi vaqt o‘tishi bilan savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar, gumanitar hamkorlik, ta’lim, turizm, xavfsizlik orqali xalqlar farovonligiga namoyon bo‘ladi. Zero, haqiqiy diplomatiyaning qiymati imzolangan hujjatlar yoki o‘tkazilgan rasmiy tadbirlar soni bilan emas, balki xalqlar o‘rtasidagi ishonch qanchalik oshgani, barqaror taraqqiyot uchun qay darajada mustahkam zamin yaratgani hamda insonlar hayotiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatgani bilan baholanadi.

O‘zbekistonning ana shunday tashqi siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirof etilmoqda. Jumladan, 2024-yilda Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an tomonidan davlatimiz rahbari Turkiya Respublikasi



Ordini bilan taqdirlandi. Mazkur mukofot ikki mamlakat o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklikni yangi bosqichga ko‘tarish, xalqlar o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlash yo‘lidagi xizmatlarning munosib e’tirofi bo‘ldi.

2025-yilda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron Prezident Shavkat Mirziyoyevni Fransiyaning eng oliy davlat mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirladi. 1802-yilda Napoleon Bonapart tomonidan ta’sis etilgan orden Fransiya davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlarning eng yuksak e’tirofi hisoblanadi. Mukofotning davlatimiz rahbariga topshirilishi ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik hamkorlikning yangi bosqichga chiqqanini, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro anglashuv tobora mustahkamlanayotganini anglatadi.

O‘sha yilning o‘zida Prezident Shavkat Mirziyoyev Iordaniya Hoshimiylar Podshohligining oliy davlat mukofoti — “An-Nahda” (“Renessans”) ordeniga sazovor bo‘ldi. Bu mukofot O‘zbekiston va Iordaniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi samarali sa’y-harakatlarga berilgan baho bo‘ldi.

Mazkur mukofotlardan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, Prezident Shavkat Mirziyoyev diplomatiyasi bugun nafaqat davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni



mustahkamlamoqda, balki xalqlar o‘rtasida ishonch ko‘priklarini barpo etayotgan zamonaviy diplomatiya maktabi sifatida ham xalqaro miqyosda tan olinmoqda.

Ilm-fan, madaniyat va sport —
chegara bilmas diplomatiya

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim ustunlaridan biri Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish g‘oyasidir. Har qanday Renessans, eng avvalo, ilm-fan, ta’lim, madaniyat va san’at yuksalishi bilan boshlangan. Shu bois, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va ta’lim milliy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida belgilandi.

Buning amaliy natijasi o‘laroq, oliy ta’lim muassasalari soni 2016-yildagi 77 tadan 2025/2026-o‘quv yili boshiga kelib 215 taga yetdi, talabalar soni esa 1,5 milliondan oshdi. Shuningdek, 2025-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekistonning 7 ta oliy ta’lim muassasasi QS World University Rankings, 4 tasi Times Higher Education World University Rankings, 59 tasi esa THE Impact Rankings xalqaro reytinglariga kiritildi. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatimizni Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida mazkur reytinglar bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylantirib, O‘zbekistonda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ilm-fan va ta’limni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish amaliy samalarini berayotganini yaqqol namoyon etmoqda.

O‘zbekistonda inson kapitali, intellektual salohiyat, sog‘lom turmush tarzi va ma’naviy taraqqiyotni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirish borasidagi keng ko‘lamli islohotlar munosib e’tirof etilmoqda.

Xususan, 2019-yilda Yaponiyaning nufuzli Nagoya universiteti davlatimiz rahbariga faxriy doktor unvonini berdi. Mazkur yuksak akademik e’tirof mamlakatimizda innovatsiyalar va xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatiga berilgan munosib baho sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat va ma’naviyat sohasida ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning turkiy sivilizatsiyaning boy merosini asrab-avaylash, xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda umumiy qadriyatlarini targ‘ib etishga qaratilgan tashabbuslari xalqaro miqyosda e’tirof etildi. 2020-yilda u Turkiy dunyo yozuvchilari, ziyolilari va san’atkorlari jamg‘armasi (TURKSAV) ta’sis etgan “Turkiy dunyo tiklanishiga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun” xalqaro mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Prezidentimiz Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan turkiy xalqlar birligini mustahkamlash, turkiy davlatlarning umumiy manfaatlarini va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun “Turkiy dunyoning oliy ordeni” bilan taqdirlandi. Bu yuksak mukofot O‘zbekistonning turkiy xalqlar integratsiyasida yetakchi rolining xalqaro e’tirofi bo‘ldi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston sport sohasida qator tarixiy yutuqlarga erishdi. O‘zbekistonlik grossmeyerlar tomonidan shaxmat bo‘yicha qo‘lga kiritilayotgan ulkan yutuqlar, “Parij-2024” Olimpiya o‘yinlarida mamlakatimiz o‘z tarixidagi eng yuqori natijalardan birini qayd etgani, milliy futbol terma jamoasi esa ilk bor jahon chempionatiga chiqqani shular jumlasidan.

Joriy yilda Jahon taekvondo federatsiyasi prezidenti Cho Chung Von O‘zbekistonda sportni jadal rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, zamonaviy sport infratuzilmasini barpo etish borasidagi islohotlarni yuksak baholab, Shavkat Mirziyoyevga federatsiyaning eng oliy shaxsiy mukofoti — Shon-sharaf ordenini topshirdi. Ordenning tarixida ilk bor davlatimiz rahbariga taqdim etilgani mamlakatimizda

sport sohasidagi keng ko‘lamli islohotlar va yoshlar siyosati xalqaro miqyosda munosib e’tirof etilganining yorqin dalili bo‘ldi.

Xulosa

Bu kabi har bir e’tirof O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni, yuksalib borayotgan ishonch va hurmat, Prezidentimizning tinimsiz amaliy harakatlari va uzoqni ko‘zlagan siyosatining yorqin ifodasi sifatida qabul qilinishi lozim. Bugun O‘zbekiston ko‘plab davlatlar uchun ishonchli hamkor, mas’uliyatli muloqot ishtirokchisi va tinchlikparvar tashqi siyosat yuritayotgan mamlakat sifatida tanilmoqda, tan olinmoqda.

Soliq yuki yengillashtirilishi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengayishi, litsenziya va ruxsat berish tartiblari soddalashtirilishi, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash borasidagi islohotlar tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.



www.yuz.uz



YUZ.uz/NEWS



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Ortga qaytmas islohotlar

YIG'LADIM, LEKIN ALAMDAN EMAS...

Bundan bir necha yil oldin men yetti farzandini – to'rt o'g'il va uch qizini yolg'iz tarbiyalayotgan, ijara pulini to'lay olmagan uchun boshpanasiz qolgan, chorasizlikdan “Temir daftar”ga kiritilgan, hayotning eng og'ir sinovlariga ro'baro' kelgan oddiy ayol edim. Ertangi kunim haqida o'ylasam, yuragimni xavotir va qo'rquv chulg'ab olardi. Qo'limga sarmoya ham, ortimda suyanadigan tayanch ham yo'q edi. O'sha paytlarda moddiy yordam umidida mahalla idorasiga murojaat qildim. Biroq turli sabablar bilan rad javobini oldim. Tan olaman, o'sha kuni alamdan yig'laganman, ko'nglim qattiq og'rigan edi...



**Komila JO'RAYEVA,
“Zarbdor zirapchasi” gul
ko'chatlarini yetishtirish tomorqa
xizmati” MCHJ rahbari**

Bugun esa o'sha voqealarni butunlay boshqacha his-tuyg'ular bilan eslayman. Avvalo, Yaratganga behisob shukr qilaman, qolaversa, o'sha paytda meni rad etgan mas'ullarni ham duo qilaman. Negaki agar o'shanda menga moddiy yordam yoki nafaqa tayinlanganida, ehtimol, o'sha mablag'ni bir oydan ikkinchi oyga yetkazish tashvishi bilan yashashda davom etardim. Balki o'z kuchimga ishonchim ham, tadbirkorlikka intilishim ham bu darajada shakllanmasdi. Hayotning qattiq sinovlari menda mehnat qilish, kurashish va taqdirimni o'zgartirishga bo'lgan mustahkam irodani tarbiyaladi.

Hayotimning og'ir kunlarida tuman obodonlashtirish bo'limi tasarrufidagi qarovsiz, tashlandiq yer maydonini topdim. Bolalarim bilan shu yerda kichik bir chayla qurib,

yashay boshladik. Ana shu paytda insonni tushkunlikdan faqat halol mehnatgina qutqara olishini yana bir bor angladim. Qo'shnilardan chelaklab suv tashib, tashlandiq va quruq yerni asta-sekin yashillikka burkadik. Har bir nihol, har bir gul ortida farzandlarimning mehnati, sabri va orzulari mujassam edi. Mashaqqatli mehnatimiz asta-sekin samara bera boshladi. Bu intilishimiz tuman rahbarlarining ham e'tiborini tortdi. Ular mendan ehtiyojnim nimada ekanini so'raganida uy-joy emas, issiqxona qurish uchun yer va imtiyozli kredit ajratishlarini iltimos qildim.

Davlatimiz tomonidan ajratilgan 10 million so'm imtiyozli kredit orzu va maqsadlarimizni amalga oshirish yo'lida yangi bosqichni boshlab berdi. Bolalarim bilan kechayu kunduz mehnat qildik. Gulchilikdan boshlangan kichik faoliyatimiz yillar davomida izchil rivojlanib, bugungi kunda ko'p tarmoqli korxonaga aylandi. Ayni paytda faoliyatimiz faqat gulchilik bilan cheklanmaydi, ko'chatchilik, bog'dorchilik, parrandachilik, chorvachilik hamda biogumus ishlab chiqarish yo'nalishlarini ham muvaffaqiyatli yo'lga qo'yganmiz.

Mehnatlarimiz o'z samarasini berdi. Bugun o'z uy-joyim, zamonaviy avtomobillarim bor. Korxonamizda 35 mahalladoshimiz doimiy ish o'miga ega. Mavsumda esa 50 nafargacha yurtdoshimiz biz bilan birga mehnat qilib, oilasi farovonligi uchun munosib daromad topyapti.

Aholi mehnatimizga yuksak baho berib, og'ir mashaqqatlar ichida shakllangan korxonamizni mehnat bilan birga yetti farzandim, mehribon onam va yillar davomida yonma-yon mehnat qilgan jamoam ham birdek his qildi. Mukofotni qabul qilish marosimida

Men bugun nafaqat ro'zg'orimni tikladim, balki o'z vaqtda menga ko'rsatilgan ishonch va ijtimoiy ko'makka javob sifatida boshqa ayollarga yordam qo'lini uzatishni burchim deb bildim. Shu maqsadda “Ayollar daftari”ga kiritilgan, taqdiri kecmishimga o'xshash, ammo gulchilikka qiziqishi bo'lgan yuzlab xotin-qizlarga bilim va tajribamni beminnat o'rgatishga kirishdim. Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridan 500 dan ziyod xotin-qiz gulchilik va issiqxona xo'jaligini yuritish bo'yicha amaliy bilim oldi. Biz mashg'ulotlarni faqat nazariy tushunchalar bilan cheklamadik. Ishni qanday boshlash, ko'chat yetishtirish, issiqxona parvarishi, mahsulotni bozorga olib chiqish kabi barcha bosqichlarni amalda ko'rsatdik. Imkoniyati cheklanganlarga urug', yelimxaltalar va boshqa zarur xomashyolar yetkazib berildi. Yetishtirilgan mahsulotlarni sotishda ham amaliy yordam ko'rsatdik. Bugun ularning ko'pchiligi o'z mehnati bilan daromad topmoqda, oilasining iqtisodiy barqarorligini ta'minlab, mustaqil tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan. Ayniqsa, tumanimizda o'ndan ziyod shogirdlarim mustaqil faoliyatini boshlab, oilasi farovonligi yo'lida halol mehnat qilayotgani qalbimga alohida faxr bag'ishlaydi. Ularning har bir muvaffaqiyatida to'kilgan peshona terimning shirin samarasini ko'raman.

Mehnatimiz va erishgan natijalarimiz davlatimiz rahbari tomonidan ham munosib e'tirof etildi. O'tgan yili “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlanganim unutilmas voqeaga aylandi. Bu quvonchni men bilan birga yetti farzandim, mehribon onam va yillar davomida yonma-yon mehnat qilgan jamoam ham birdek his qildi. Mukofotni qabul qilish marosimida

Prezidentimiz imzosi qo'yilgan guvohnoma va ko'krak nishonini qo'limga olganimda, ko'z oldimdan butun hayotim kinotasmadek

marhamati va davlatimizda inson mehnatiga berilayotgan yuksak e'tibordan tug'ilgan shukronalik yoshlari edi.



o'ta boshladi. Bolalarim bilan tashlandiq yerda qurgan kichik chaylamiz, qo'shnilardan chelaklab suv tashib yashnatgan gullarimiz, issiqxonada o'tkazgan sovuq qishlar, yuqsiz kechalar, qiyinchiliklar va mashaqqatlarga to'la yillar birma-bir yodimga tushdi. O'sha lahzada ko'zlarimga yosh keldi. Men yig'ladim. Lekin bu safar alamdan emas...

Bu mehnatning qadrlanganidan, orzularning ushlanganidan, farzandlarimning peshonasi yorug' bo'lganidan, eng muhimi, Yaratganning

Mukofotni esa faqat menga emas, balki hayot sinovlariga taslim bo'lmay, o'z taqdirini o'zgartirish uchun mehnat qilayotgan minglab xotin-qizlarmizga berilgan yuksak ishonch timsoli deb bilaman. Chunki yaxshi bilaman, og'ir vaziyatga tushib qolish insonning aybi emas, ammo undan chiqish uchun harakat qilish har kimning o'z qo'lida. Bugun hayot sinovlari qarshisida ikkilanib turgan har bir ayolga bunday degim keladi: “Hech qachon umidni va o'zingizga ishonchni yo'qotmang. Yoshdan

Bugun global ekologik kun tartibi nafaqat xalqaro hamkorlikning alohida yo'nalishi, balki jahon siyosati va barqaror rivojlanishning asosiy o'lchovlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Binobarin, ekologiya faqat tabiat haqidagi mulohaza emas, bu hayot sifati, inson salomatligi, xavfsizligi va kelajakda farzandlarimiz yashaydigan sayyoramiz taqdiri haqidagi eng muhim masaladir.

Shu bois, bugun ekologik kun tartibi borasidagi balandparvoz so'zlarni aytayotgan emas, aniq va amaliy loyihalarni hayotga tatbiq etayotgan mamlakatlar tabiat muhofazasida peshqadamlik qilmoqda. Iqlim o'zgarishi kuchayib borayotgan, tabiiy resurslar tanqisligi tobora sezilayotgan sharoitda davlatlarning strategik yechimlar taklif qila olishi va samarali hamkorlik modellarni yo'lga qo'y bilishi ularning xalqaro maydondagi haqiqiy o'rmini belgilab bermoqda.

Bu borada O'zbekistonning roli tobora yaqqol namoyon bo'lyapti. Buni mazkur yo'nalishda puxta ishlab chiqilgan amaliy strategiya taklif etilayotganida ham ko'rish mumkin. Soha mutaxassislari e'tirof etayotganidek, mamlakat tashabbuskorlik, pragmatizm va xalqaro kooperatsiyaga asoslangan mintaqaviy hamda global yetakchilik modelini ilgari surmoqda.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi sessiyalaridagi nutqlarida urg'u nafaqat mahalliy muammolar, balki suv xavfsizligi, yer degradatsiyasi va iqlim o'zgarishlari oqibatlarini bo'yicha jamoaviy mas'uliyat zarurligiga qaratilmoqda. Markaziy Osiyo ekologik kun tartibi yagona, o'zaro bog'liq hudud sifatida ilgari surilmoqda.

Bugun iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yerlarning tashazzulga uchrashi va cho'llanish butun mintaq uchun dolzarb ekologik muammoga aylanmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi salomatligi va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Orol dengizining qurishi, tez-tez yuz beradigan chang va qum bo'ronlari, shaharda havo ifloslanishi, suv resurslari tanqisligi, yer cho'llanishi-yu, yo'qolib borayotgan biologik xilma-xillik, qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalardan ortiqcha foydalanish, bularning barchasi o'n yillab davomida to'planib kelgan va yechim kompleks yondashuvni talab qilardi. Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda ekologik masala global muloqot darajasiga olib chiqildi. Davlatimiz rahbari bu yo'nalishni nafaqat mamlakat ichida, balki eng yuqori xalqaro minbarlarda ham ko'tarib, unga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratishga erishdi.

Mamlakatimiz hududining qariyb 80 foizi cho'l va yarim cho'l maydonlaridan iborat. Yer



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Dolzarb mavzu

Musaffo havo, zilol suv va yam-yashil daraxtlar — bularning barchasi kundalik hayotimizning ajralmas qismi. Afsuski, bu bebaho boylikning qadrlini ularni yo'qota boshlaganimizdan keyingina anglaymiz.

CHO'L – YANGI IQTISODIY IMKONIYATLAR MANBAI

sho'rlanishi, qum ko'chishi, chang bo'ronlari va garmسل Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari, shuningdek, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarining ayrim tumanlarida jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Orol dengizining qurishi mazkur jarayonni yanada kuchaytirgan. Dengizning qurigan tubida Orolqum cho'li shakllanib, havoga ko'tarilayotgan tuz va chang keng hududlarga tarqalmoqda. Shu bois, Orolbo'yida yashil qoplamalar barpo etish, saksuvul va boshqa cho'l o'simliklari ekish izchil davom ettirilmoqda. Keyingi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ortiq yung o'rmonzor barpo etildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ham keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Mamlakat bo'ylab 1 milliarddan ziyod daraxt va buta ko'chati ekildi, ko'kalamzorlashtirish darajasi 2020-yildagi 8 foizdan 2025-yilda 14,3 foizga yetdi. Shuningdek, 2026-2030-yillarda cho'llanishga qarshi kurashish maqsadida 1,27 million gektarda o'rmon barpo etish va qayta tiklash, cho'l, tog' va tog'oldi hududlarida 16 ming gektar himoya o'rmonzori yaratish rejalashtirilgan.

Iqlim sharoiti og'ir hududlarda hayotning eng qiyin sinovlarini yengib o'tishga to'g'ri keladi. Chunki tabiatning o'z qonunlari bor. Sahrolar — qum barxanlariga yaqin-yaqin gacha



samarasiz kengliklar sifatida qaralgan. Bugun esa cho'l haqidagi tasavvur tubdan o'zgarimoqda. Cho'llanishga qarshi kurash nafaqat ekologik zarurat, balki yangi iqtisodiy tafakkurning muhim yo'nalishiga aylanayapti.

Bu qumlar endi tabiat belgilagan chegara emas, balki taraqqiyot uchun yangi imkoniyatdir. Barpo etilayotgan har bir yashil maydon nafaqat

tabiatni asrashga, balki mamlakat kelajagiga kiritilayotgan muhim sarmoyadir.

Joriy yil 6-iyul kuni cho'llanishga qarshi kurashish va cho'l iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek, shaharlarda “yashil shahar” tamoyillarini joriy etish yuzasidan Prezidentimizga taqdim etilgan axborotda

“cho'l iqtisodiyoti” yondashuvini rivojlantirish,

qo'riq va sho'rlangan yerlarda barqaror daromad manbalarini yaratish, cho'l o'simliklari urug'chiligi va ko'chatchiligi yo'lga qo'yish, galofit o'simliklar yetishtirish, yaylovlar mahsuldorligini oshirish, chorvachilik, ekologik turizm va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ko'rsatib o'tildi.

Qoraqalpog'istonda cho'l o'simliklari ko'chatxonalarini tashkil etish, Orolning qurigan sifida ilmiy ekspeditsiyalar o'tkazish, Bobotog' hududida zamonaviy usullar asosida pista plantatsiyalarini rivojlantirish, galofit bog'lar tarmog'ini kengaytirish taklif etildi.

Qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar va urug'lar bo'yicha mintaqaviy bank yaratish, xalqaro fondlar va xususiy investitsiyalarni jalb etish masalalarini muhokama qilindi.

Cho'llanish va yer degradatsiyasi chegara bilmaydigan muammo. Shu bois, unga qarshi kurashishda yagona mintaqaviy yondashuv, ilmiy hamkorlik, ma'lumot almashish va texnologiyalar transferi muhim.

Faol ekologik siyosat mamlakatning xalqaro maydonda mas'uliyatli va zamonaviy davlat sifatida nufuzini oshirib, investitsiyalarni jalb qilmoqda hamda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratayapti.

Shu ma'noda, cho'llanishga qarshi kurashish va cho'l iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini kengaytirish, “Yashil qalqon”

qat'i nazar, inson istasa, hayotini yangidan boshlashi, taqdirini mehnati bilan o'zgartirishi mumkin. Buning uchun, eng avvalo, intilish, sabr va harakat zarur. Har qanday qiyinchilik ortida yangi imkoniyat yashiringan bo'ladi. Agar odam o'z kuchiga ishonasa, mehnatdan qochmasa va ezuq maqsadidan qaytmasa, albatta, orzulariga yetadi. Men buning tirik, hayotiy isbotiman”.

Bu natijalarga faqat mehnatim va irodam bilan erishdim deydishdan yiroqman. Yutuqlarim, avvalo, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil davlat siyosati, yaratilayotgan keng imkoniyatlarning amaliy samarasi. Eng muhimi, keyingi yillarda yurtimizda hayotimizning bosh mezoniga aylangan “Inson qadri uchun” tamoyili amalda o'z ifodasini topmoqda. Buni hayotim misolida ham yaqqol his etdim. Bir paytlar insonlar davlat idoralarga o'z muammosini aytish uchun qatnab, turli eshiklarni taqillatishga majbur bo'lgan bo'lsa, bugun aholi muammolarini o'z vaqtda o'rganish va ularni manzilli hal etishga qaratilgan butunlay yangi, insonparvar tizim shakllandi. Bir vaqtlar “Temir daftar”da ro'yxatda turgan, turmushning og'ir sinovlarini boshidan kechirgan oddiy bir ayolning bugun mehnati orqali davlat e'tirofiga sazovor bo'lishi inson qadrlini ulug'lash g'oyasi hayotda qanday qaror topayotganining yorqin ifodasidir. Ayniqsa, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, bilim olishi, kasb egallashi va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun yaratilayotgan sharoitlar ko'plab oilalar hayotiga qut-baraka olib kirmoqda.

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan muntazam muloqot qilib, taklif va muammolarini bevosita tinglayotgani hamda ularning yechimi yuzasidan aniq vazifalar belgilab borayotgani biz kabi tadbirkorlarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlamoqda. Keyingi yillarda soliqlik yuki yengillashtirilishi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengayishi, litsenziya va ruxsat berish tartiblari soddalashtirilishi, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash borasidagi islohotlar tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

O'tgan yili Prezidentimiz tadbirkorlar bilan o'tkazgan ochiq muloqotda shaxsan ishtirok etish men uchun unutilmas voqea bo'ldi. Bu uchrashuv bizga katta ruhiy kuch bag'ishlabgina qolmay, balki bildirilgan yuksak ishonchni munosib oqlash mas'uliyatini ham yanada chuqurroq his ettirdi.

Shundan so'ng mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, faoliyatimni kengaytirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, qo'shimcha ish o'rnlari yaratish, ayniqsa, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash yo'lida yanada faol ishlashga bel bog'ladim. O'tgan qariyb bir yil davomida bu borada muayyan natijalarga erishdik. Eng muhimi, mehnatimiz orqali yurtimiz taraqqiyotiga o'z bo'lsa-da munosib hissa qo'shayotganimni his qilish menga yangi maralar sari intilish uchun yanada katta kuch va ishonch bag'ishlaydi.

mintaqaviy dasturi doirasida amaliy loyihalarni ko'paytirish, 2040-yilgacha cho'llanishga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqish borasida taqdimotda ilgari surilgan tashabbuslar muhim ahamiyatga ega.

Endilikda sanoat obyektlarining ekologik ta'sirini kamaytirish uchun “yashil sonat zonalari” hududida eng maqbul texnologiyalar, “Zero Visible Emission” va raqamli ekologik monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Mavjud sanoat zonalari atrofida “yashil belbog'lar” tashkil etiladi hamda aholi sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan I va II toifaga mansub 8 ta sanoat korxonasini shahar hududidan tashqariga ko'chirish choralarini ko'riladi.

Yana bir ustuvor vazifa millionlab insonlar yashaydigan shahar muhitini yanada qulay va farovon qilishdir. Shu bois, bugun “yashil shahar” tamoyillari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shahar endi faqat bog'lar va xiyobonlar degani emas, bu toza havo, xavfsiz va zamonaviy ekotexnologiyalar, energiyatejamkor binolar, qulay jamoat transporti hamda puxta rejalashtirilgan yaxlit hududdir.

Ana shunday yondashuv shaharlarni yanada ko'rkam, iqtisodiy samaradorligi baland va ertangi kun uchun raqobatbardosh makonga aylantiradi. Ayni maqsadda shaharlarning ekologik barqarorligini ta'minlash bo'yicha “Green Samarkand” modeli ko'rib chiqildi.

Mazkur model doirasida 2030-yilga qadar Samarqand shahrida aniq ekologik ko'rsatkichlarga erishish belgilangan. Jumladan, atmosfera qizirilishi mumkin bo'lgan 51,2 ming tonna zararli tashlamalarning oldini olish, sanoat va energetika obyektlarida chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish orqali zararlarni 50 foiz, qurilish obyektlaridan chiqadigan chang miqdorini 80 foiz, transport vositalaridan chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar hajmini 50 foiz qisqartirish, chiqindi poligonlari hajmini 2 barobar kamaytirish hamda aholi yashash punktlarida yashil hududlar ulushini o'rtacha 30 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Samarqand shahrida maxsus ekologik-shaharsozlik rejimi joriy etilib, yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan obyektlar uchun “yashil qurilish” talablari majburiy etib belgilangan. Bunda energiya va suv tejamkor texnologiyalar qo'llash, chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish, resurs samaradorligini oshirish hamda ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlarni foydalanishga qabul qilmaslik amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

**Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri**

Taraqqiyotning mustahkam asosi bilim va tafakkur bo‘lsa, jamiyat barqarorligining eng muhim sharti tinchlik va xavfsizlikdir. Aslida, bu ikki omil bir-birini to‘ldiradi va kuchaytiradi. Zero, xavfsiz va barqaror muhit mavjud joyda insonning intellektual salohiyati to‘liq namoyon bo‘ladi, mehnat samaradorligi ortib, kelajakka ishonch mustahkamlanadi. Bunday sharoitda fuqarolar o‘z imkoniyatini erkin ro‘yobga chiqaradi, yosh avlod esa vatanparvarlik va mas’uliyat ruhida kamol topadi.



Nasiba TURG‘UNOVA,
IIV akademiyasi boshlig‘ining ilmiy
ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
o‘rinbosari, siyosiy fanlar doktori,
professor

Mamlakatimizda so‘nggi yillardagi islohotlar xavfsizlikka nisbatan mutlaqo yangi yondashuvni shakllantirmoqda. Endi mazkur tushuncha faqat huquqbuzarliklarning oldini olish yoki jamoat tartibini ta‘minlash bilan cheklanmaydi. U aholining davlat institutlariga ishonchi, mahallalardagi barqaror ijtimoiy muhit, tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar va yoshlar tarbiyasi bilan uzviy bog‘liq kompleks tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Huquq-tartibot tizimidagi islohotlar bugun yangi mazmun kasb etmoqda. Ichki ishlar organlari faoliyatida xalqqa yaqinlik, tezkorlik, ochiq muloqot, bilim va zamonaviy tafakkur ustuvor mezonga aylanayapti. Bu jarayonda har bir xodimning kasbiy salohiyati, har bir qaromning ilmiy asosi, har bir profilaktik choraning amaliy samarasi muhim ahamiyatga ega. Zero, xavfsiz muhit o‘z-o‘zidan shakllanmaydi: u puxta bilim, mas’uliyat, hayotiy tajriba, xalq bilan samimiy muloqot va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unligida qator topadi.

Huquq-tartibot organlari oldiga qo‘yilayotgan talablar zahirida ham aynan shu ma‘no mujassam. Bugun tizimdan faqat jinoyatni fosh etish emas, balki jinoyatga olib keladigan sabablarni barvaqt ko‘rish, xavf omillarini oldindan anglash, fuqaro muammosiga befarq bo‘lmislik va har bir murojaat ortida inson taqdiri turganini his etish talab qilinmoqda. Bu talablar ichki ishlar organlarining xalqchil qiyofasini yanada mustahkamlab, uni jamiyat hayotiga yaqin, fuqaro manfaatiga yo‘naltirilgan, ishonchli va zamonaviy institut sifatida rivojlantirishga zamin yaratmoqda.

Bugungi jinoyatchilikni kechagi tasavvur bilan tushunib bo‘lmaydi. Chunki u faqat ko‘chadagi tartibsizlik, o‘g‘rilik yoki bezorilik ko‘rinishida emas, internet tarmog‘ida, telefon qo‘ng‘iroqlarida, soxta elektron havolalarda, noqonuniy moliyaviy aylanmalarda, yoshlar ongiga ta’sir qilayotgan xavfli axborot oqimlarida

ham namoyon bo‘lmoqda. Ayrim hollarda fuqaro uyidan chiqmagan holda fribgar qurboniga aylanadi. Ba‘zan yoshlar ko‘zga ko‘rinmas raqamli muhida salbiy ta’sirlarga duch keladi.

Shu bois, huquq-tartibot organi xodimi bugun faqat qonunni bilgan ijrochi emas, balki tahlil qila oladigan, raqamli texnologiyalardan xabardor, odamlar bilan ishlash madaniyatiga ega, vaziyatni oldindan baholaydigan professional mutaxassis bo‘lishi shart.

Mamlakatimiz yetakchisining “Har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda asosiy bo‘g‘in — mahalla profilaktikasi”, degan fikri bugungi



Xavfsiz mahalla

2025-yilda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo‘yicha belgilangan choralar natijasida mahallalarda jinoyatchilik qariyb 1,5 baravar kamaygani ham fikrimiz tasdig‘idir.

tizimli mehnat turibdi. Eng muhimi, ushbu natija jinoyatchilikka qarshi kurashda oqibat bilan emas, sabab bilan ishlash naqadar to‘g‘ri yo‘l ekanini ko‘rsatmoqda.

samarasini oshirayotgan muhim mexanizmga aylanmoqda.

Islohotlarning yangi mazmuni shundaki, profilaktika ishlari umumiy tadbirlar doirasidan

xulosa hayotiy yechimga, tavsiyalar esa mahalla hayotida seziladigan amaliy o‘zgarishlarga aylanadi.

Bugun ichki ishlar organlari faoliyatini ilm-

ASOSIY MAQSAD – ERTANGI KUNGA ISHONCH BILAN QARAYDIGAN JAMIYATNI BARPO ETISH

islohotlarning hayotiy mazmunini to‘liq ifoda etadi. Chindan ham, mahalla — jamiyatning eng yaqin, eng hayotiy va eng sezzir bo‘g‘ini. Odamlarning quvonchi ham, tashvishi ham, muammosi ham, xavfi ham, avvalo, mahallada ko‘rinadi. Shuning uchun jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda mahalla bilan ishlashni kuchaytirish, har bir hududning o‘ziga xos ijtimoiy manzarasini o‘rganish va muammoga manzilli yondashish islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aйлadi.

So‘nggi yillarda bu boradagi ishlar aniq natijalar bermoqda. 2025-yilda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo‘yicha belgilangan choralar natijasida mahallalarda jinoyatchilik qariyb 1,5 baravar kamaygani ham fikrimiz tasdig‘idir. Bu raqam ortida quruq statistika emas, balki mahalladagi muhitni sog‘lomlashtirish, mas’ul idoralar hamkorligini kuchaytirish, profilaktik ishlarni manzilli tashkil etish va odamlar hayotida osoyishtalikni mustahkamlashga qaratilgan

Prezidentimizning 2026-yil 5-yanvardagi mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirishga doir ikkita qarori ana shu islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Bu hujjatlar mohiyatida mahalladagi har bir muammoni o‘z vaqtida ko‘rish, huquqbuzarlikka olib kelayotgan omillarni bartaraf etish, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashda mas’ul idoralar hamkorligini kuchaytirish kabi hayotiy maqsadlar mujassam.

Islohotlar mahalla tizimiga yangicha mazmun bermoqda. Endi mahalla faqat aholi yashaydigan hudud emas, balki jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, ijtimoiy muammolarni vaqtida aniqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashning muhim bo‘g‘ini sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuv mas’ul idoralarni muammoni oqibat bosqichida emas, uni keltirib chiqarayotgan sabablarni paydo bo‘layotgan paytdayoq ko‘rishga yo‘naltirmoqda. Shu jihatdan mahallabay ishlash tizimi huquq-tartibot sohasidagi islohotlar



chiqib, har bir mahallaning real holati, ijtimoiy muhiti va xavf omillarini chuqur o‘rganishga asoslanmoqda. Bu esa profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, mahalla raisi va boshqa mas’ullarni bir maqsad — jinoyatga olib boruvchi sabablarni barvaqt bartaraf etish yo‘lida hamkorlikda ishlashga chorlaydi. Chunki xavfsiz muhit faqat nazorat bilan emas, odamlar bilan yaqin muloqot qilish, ijtimoiy xavfni vaqtida baholash, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va aniq natijaga qaratilgan choralarini amalga oshirish orqali ta‘minlanadi.

Bu jarayonda “ilmiy xulosa — tavsiya — natija” tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir mahalla haqida taxmin emas, aniq xulosa bo‘lishi kerak. Qaysi hududda oilaviy nizolar xavfi yuqori, qayerda yoshlar nazoratsiz qolmoqda, qaysi mahallada mulkiy jinoyatlarining sababi ishsizlik yoki qarzdorlik bilan bog‘liq, qaysi profilaktik tadbir amalda samara bermoqda — bularni hissiyot bilan emas, ilm, tahlil, hayotiy kuzatuv bilan aniqlash mumkin. Shundagina ilmiy

fan, tahliliy yondashuv va zamonaviy bilimlarsiz tasavvur etish qiyin. Jinoyatchilik sabablarini aniqlash, kriminogen vaziyatni to‘g‘ri baholash, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, kiberjinoyatchilik va yangi turdagi tahdidlarga qarshi samarali kurashish chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Huquq-tartibot sohasida qabul qilinayotgan har bir qaror, amalga oshirilayotgan har bir profilaktik chora va tayyorlanayotgan har bir kadr zamirida puxta bilim, aniq ma‘lumot va hayotiy tajriba uyg‘unligi bo‘lishi zarur. Shu bois, ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyot bilan bog‘lash masalasi bugungi islohotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bu borada Prezidentimizning yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlashga doir shu yil 26-maydagi farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatni faqat doktorantura yoki ilmiy daraja berish tartibini yangilash bilan cheklab tushinish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Uning zahirida ilm-fanni hayotga yaqinlashtirish, tadqiqotlarni amaliyotdagi muammolar

yechimiga yo‘naltirish, ilmiy izlanish natijasini jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan amaliy kuchga aylantirish g‘oyasi mujassam.

Ayniqsa, ichki ishlar organlari uchun ayni g‘oya muhim. Chunki huquq-tartibot sohasida ham ilmiy kadrlar, zamonaviy tahlilchilar, kriminologik fikrlaydigan mutaxassislar, kiberxavfsizlikni tushunadigan xodimlar, raqamli dalillar bilan ishlay oladigan tadqiqotchilar zarur.

Ichki ishlar organlari ta‘lim muassasalari oldida turgan vazifalar ham bugungi islohotlar mazmuni bilan uzviy bog‘liq. Endi kadr tayyorlash jarayonini faqat auditoriyadagi nazariy mashg‘ulotlar yoki qonun normalarini o‘rgatish bilan cheklab bo‘lmaydi. Huquq-tartibot sohasida xizmat qiladigan bo‘lajak xodim hayotining o‘zi bilan yuzma-yuz keladi: u odamlar dardini eshitadi, nizoli vaziyatlarda qaror qabul qiladi, mahalladagi ijtimoiy muhitni anglaydi, raqamli dalillar bilan ishlaydi, eng muhimi, har bir harakati ortida inson taqdiri turganini his etadi. Shu bois, bugungi ta‘lim islohotlari kursantni faqat intizomli ijrochi emas, balki bilimli, adolatlil, tahliliy fikrlaydigan va xalq bilan muloqot qila oladigan professional kadr sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yangi davr ichki ishlar ta‘limida hayotga yaqinlik, amaliyot bilan uzviy bog‘liqlik va tahliliy yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ilgari kursantni, asosan, huquqiy bilim va xizmat intizomi asosida tayyorlash ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, bugungi islohotlar uni real ijtimoiy muhitni anglaydigan, mahalladagi kriminogen vaziyatni to‘g‘ri baholaydigan, huquqbuzarlik sabablarini ilmiy asosda tahlil qila oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga yo‘naltirmoqda. Bu esa ta‘lim jarayoni mazmunini yanada boyitib, uni jonli amaliyot bilan yaqinlashtirayotir.

Umuman, bugungi kunda O‘zbekistonda xavfsizlikning yangi formulasi shakllanmoqda: mahalla hayotini ko‘radi, ilm sababini ochadi, texnologiya tezkorlik beradi, mas’uliyat esa natijani ta‘minlaydi. Bu to‘rt omil uyg‘unlashgan joyda huquq-tartibot tizimi xalqqa suyanagan, xalq uchun xizmat qiladigan zamonaviy institutga aylanadi. Bunday tizimda har bir xodim o‘z faoliyatini oddiy xizmat vazifasi emas, balki inson xotirjamligiga daxldor mas’uliyat sifatida anglaydi.

Eng muhimi, islohotlar otda oddiy, ammo ulug‘ maqsad turibdi: odamlar tinch yashasin, mahallalarda osoyishtalik bo‘lsin, yoshlar to‘g‘ri yo‘ldan adashmasin, jinoyatga olib boradigan sabablarni vaqtida bartaraf etilsin, fuqaro davlat organiga murojaat qilganda o‘zini yolg‘iz his qilmasin. Ana shu maqsad huquq-tartibot tizimidagi har bir yangilanishga insonparvar mazmun bag‘ishlanmoqda.

Bugun oldimizda turgan vazifa aniq: mahallalarda xavfsiz muhitni mustahkamlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, huquq-tartibot organlarini zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollantirish, ichki ishlar organlari uchun professional, ilmiy va xalqparvar kadrlar tayyorlash. Ushbu vazifalar bir-biridan alohida emas, balki yagona maqsadga xizmat qiladi. Bu maqsad yangi O‘zbekistonda inson o‘zini himoyalangan, qadrlangan va ertangi kunga ishonch bilan qaraydigan jamiyatni barpo etishdir.

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlikni faqat kuchli tizim emas, ilmi kadr, adolati yondashuv, mahalla bilan yaqin hamkorlik va xalq ishonchi ta‘minlaydi. Bugungi islohotlar ana shu haqiqatni yana bir bor tasdiqlamoqda. Ilmga tayangan, texnologiyadan oqilona foydalangan, mahalla hayotini chuqur bilgan va inson qadrlari ustuvor qo‘ygan huquq-tartibot tizimi yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti va osoyishta hayoti uchun eng ishonchli tayanch bo‘lib xizmat qiladi.



Kamolot pillapoyasi

Prezidentimizning mamlakatimiz yoshlari bilan o‘tkazgan ochiq muloqoti yangi O‘zbekiston taraqqiyotining navbatdagi muhim strategik bosqichini belgilab berdi. Unda ilgari surilgan har bir tashabbus yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning navbatdagi bosqichi bo‘libgina qolmay, mamlakat iqtisodiyotini inson kapitali, innovatsiya va bilimlar iqtisodiyoti asosida rivojlantirishning aniq dasturi sifatida namoyon bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Bugungi kunning muvaffaqiyat formulasi, ertangi taraqqiyotning mustahkam zaminini uchta eng muhim ustunga tayanadi. Bu — bilim, kasb va texnologiya”. Ushbu g‘oya yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining tub mohiyatini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning konseptual asosini o‘zida mujassam etgan.

Bugun global iqtisodiyotda ustunlikka erishish, birinchi navbatda, bilimni va tashabbuskor insonlarga sarmoya kiritish, ilmiy g‘oyalarni amaliy natijaga aylantirish, zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’nodan, Bank-moliya akademiyasining yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha mamlakatning “aql markazi” sifatida belgilanishi davlatimiz rahbarining akademiyaga bo‘lgan yuksak ishonchi, uning ilmiy-intellektual salohiyati va strategik ahamiyatining yuksak e’tirofi hisoblanadi.

Bu e’tirof mazkur akademiya zimmasiga ta’lim berish bilan bir qatorda mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi intellektual platformani shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani ham yuklaydi. Endilikda uning faoliyati an’anaviy o‘quv jarayoni doirasidan chiqib, hududlarda yoshlar va tadbirkorlar bilan bevosita ishlaydigan, ularning tashabbus va ehtiyojlarini o‘rganadigan, iqtisodiy tahlillar o‘tkazadigan, iqtisodiy salohiyatini o‘shirish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda zamonaviy biznes muhitini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Mazkur yondashuv mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi institutsional modelni qator topitirmoqda. Ilk bor oliy ta’lim, ilm-fan,



Elmurod HOSHIMOV,
Bank-moliya akademiyasi rektori

bank-moliya tizimi, investitsiya institutlari va tadbirkorlik muhiti o‘zaro uzviy bog‘langan yagona ekotizim sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu tizimda bilim amaliy qiymatga, ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy yechimlarga, innovatsion g‘oyalar esa investitsiya jalb etadigan va yangi ish o‘rinlari yaratadigan loyihalarga aylanadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan eng muhim tashabbuslardan yana biri — magistratura ta’limining mazmun-mohiyatini tubdan yangilash, uni mamlakat iqtisodiyotining real ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lash. Xususan, magistrlik dissertatsiyalarini amaliy iqtisodiy va investitsiya loyihalarini asosida shakllantirish mexanizmining joriy etilishi oliy ta’lim, ilm-fan va iqtisodiyot integratsiyasini ta’minlaydigan mutlaqo yangi tizimni vujudga keltiradi.

Mazkur yondashuvning asosiy ahamiyati shundaki, ilmiy tadqiqotlar endi nazariy izlanishlar doirasida qolib ketmaydi, balki mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan aniq amaliy yechimlarga aylanadi. Endi har bir magistrant o‘z dissertatsiyasida muayyan hudud yoki tarmoqda mavjud iqtisodiy muammolarni chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy jihatdan asoslangan biznes-loyiha yoki investitsiya taklifini ishlab chiqadi. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning amaliy qiymatini oshirish bilan birga ta’lim jarayonini real iqtisodiyot talablari bilan yanada uyg‘unlashtiradi.

Ayniqsa, eng istiqbolli loyihalarining nafaqat magistrlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilinishi, balki Yoshlar tadbirkorligi jamg‘armasi tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanib, amaliyotga tatbiq etilishi ilm-fan natijalarini iqtisodiy o‘shirishga aylanadi. Shu bilan birga, magistrlik dissertatsiyalarini amaliy iqtisodiy va investitsiya loyihalarini asosida shakllantirish mexanizmining joriy etilishi oliy ta’lim, ilm-fan va iqtisodiyot integratsiyasini ta’minlaydigan mutlaqo yangi tizimni vujudga keltiradi.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida mamlakatimizda rahbar kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratdi. Xususan, eng yaxshi biznes loyihalarini mualliflarining hududiy banklar rahbarlari hamda hokimlarning iqtisodiyot bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimlariga birinchi navbatda nomzod sifatida ko‘rib chiqilishi



haqidagi tashabbus davlat boshqaruvi tizimida mutlaqo yangi yondashuvni boshlab beradi.

Mazkur qaror mamlakatimizda rahbar kadrlarni tayyorlash va saralashning zamonaviy, natijaga yo‘naltirilgan modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Endi rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni baholashda faqat nazariy bilim yoki ta’lim to‘g‘risidagi hujjat emas, balki ularning amaliy faoliyati, iqtisodiy tahlil qilish qobiliyati, strategik fikrlashi, tashabbuskorligi va murakkab iqtisodiy muammolarga aniq yechim taklif eta olish salohiyati hal qiluvchi mezonaga aylanadi. Ya’ni yaratilgan biznes loyihasingan hayotiyli, iqtisodiy samaradorligi va hudud rivojiga qo‘shayotgan amaliy hissasi kadrlar salohiyatini baholashning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shubhasiz, bunday yuksak marralarga erishish, eng avvalo, zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarga ega, innovatsion fikrlaydigan, tashabbuskor, yuksak fuqarolik mas’uliyati hamda vatanparvarlik tuyg‘usi bilan yashaydigan

yosh avlodga bog‘liq. Chunki yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hal qiluvchi kuchi, bu — inson kapitali, intellektual salohiyat va yoshlarning yaratuvchanlik imkoniyatlari. Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tizimning joriy etilishi aynan ana shu ulkan salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Ishonchimiz komilki, Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan mazkur tizim mamlakatimizda minglab yoshlarning tadbirkorlik sohasiga faol kirib kelishini ta’minlaydi, innovatsion startaplar harakatini yangi bosqichga olib chiqadi, iqtisodiyotga yangi investitsiyalar, ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy biznes modellari keng joriy etishga xizmat qiladi. Eng muhimi, ushbu tashabbuslar orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, hududlarning iqtisodiy salohiyati yanada yuksaladi va aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi barqaror iqtisodiy o‘shir uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK
VA ILM-MA’RIFAT YOLI
Toshkent • Samarqand • Termiz
7-11 iyul, 2026-yil

Munosabat

MA’RIFAT VA EZGULIK MINBARI

O‘zbekiston global islom tafakkuri markaziga aylanmoqda

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi

Shu kunlarda O‘zbekiston jahon islom tafakkurining asosiy diqqat markaziga aylandi. Mamlakatimizda “Islom sivilizatsiyasi: tinchlik, bag‘rikenglik va ilm-ma’rifat yo‘li” mavzusida Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi yuksak darajada o‘tkazildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu nufuzli anjuman o‘zining geografiasini va ko‘lami bilan ahamiyatli. Forum mamlakatimizning uchta qadimiy va tarixiy markazi — Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarini yagona ma’rifiy yo‘nalish sifatida birlashtirdi.

Anjumanda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan nufuzli mehmonlar, jumladan, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, yetakchi islomshunos olimlar, vazirlar va muftiylar ishtirok etdi. Xalqaro islom ta’limi va madaniyati tashkiloti (ICESCO) bilan hamkorlikda o‘tkazilgan ushbu tadbir jahon ilmiy jamoatchiligi diqqat markazida bo‘ldi.

Forumning ochilish marosimi Toshkent shahrida, mahobatli Islom sivilizatsiyasi markazida bo‘lib o‘tdi. Bu majmua nafaqat o‘zining me’moriy ko‘rinishi, balki undagi innovatsion texnologiyalar bilan ham hamiyurtlarimiz va xorijlik mehmonlarni hayratga solmoqda. Muzeydagi buyuk allomalarimizning 100 dan ortiq raqamli avatarlari va noyob qo‘lyozmalar fondi O‘zbekistonning Islom Renessansi beshigi bo‘lganini yana bir bor isbotladi.

Toshkentda o‘tkazilgan yalpi majlislarda asosiy e’tibor madaniy diplomatiyani rivojlantirish, soxta diniy g‘oyalarga qarshi faqat ma’rifat bilan kurashish hamda dunyo fondlaridagi noyob qo‘lyozmalarni raqamlashtirish masalalariga qaratildi. Bu juda muhim, zero, ma’rifat va madaniy diplomatiya

soxta g‘oyalardan himoya qiladi, raqamlashtirish esa o‘tmish merosini kelajak uchun saqlab qoladi.

Anjuman dasturi Samarqand va Termiz shaharlarida davom ettirildi. Samarqandda “Al-Jomi’ as-Sahih” — “Ummat kitobi” mavzusidagi konferensiya doirasida hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy merosi chuqur tahlil qilindi. Termizda esa Imom Termiziy va Imom Moturidiyning aqida va kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hisssasi, ularning asarlaridagi bag‘rikenglik tamoyillari muhokama etildi. Shunisi e’tiborliki, Samarqand va Termizda aynan ushbu mavzularning tanlanishi tarixiy haqiqat va bugungi kun ehtiyoji bilan bog‘liq. Hozirda soxta diniy oqimlar hadislarini va aqida (islom iymon asoslari) masalalarini o‘z maqsadlariga moslab, noto‘g‘ri talqin qilmoqda.

Imom Buxoriy merosi — soxta va to‘g‘ima hadislarini asl hadislardan ajratib beruvchi bosh mezon. Imom Moturidiy ta’limoti — aqidada chuqur ketmaslik, bag‘rikenglik va aql bilan naqlni (diniy matnlarni) muvozanatda ushlash asosidir. Bu ta’limot mutaassiblikka (radikalizmga) qarshi eng kuchli mafkuraviy qalqon hisoblanadi.

Forum doirasida taqdim etilgan “Shavkat Mirziyoyev — ma’rifatparvar yo‘lboshchi” kitob-albomi va Imom Termiziyning “Shamoili Muhammadiya” asarining rus tilidagi ilk akademik nashri xalqaro ilmiy hamjamiyat



uchun katta tuhfa bo‘ldi. Ushbu ikki asar shunchaki oddiy kitoblar emas, balki xalqaro siyosat, global islomshunoslik va akademik ilm-fan uchun muhim strategik ahamiyatga ega bebaho manbalar.

Xalqaro ilmiy hamjamiyat nima uchun ularni yuqori baholayotganini qator omillar orqali kengroq tushunish mumkin. Xususan, “Shavkat Mirziyoyev — ma’rifatparvar

yo‘lboshchi” kitob-albomi dunyo hamjamiyati uchun O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi yangi davlatchilik va madaniy strategik modelini tushuntirib beruvchi asosiy qo‘llanma. Shuningdek, bu kitob islom olami uchun milliy taraqqiyotimizning o‘ziga xos taqdimoti, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Sir emaski, ko‘pgina xorijiy davlatlar islom dini rivojini faqat masjidlar qurish va diniy rasmiyatchilik bilan o‘lchaydi. Bu asar esa O‘zbekistonning “Din va ilm-fan uyg‘unligi” konsepsiyasini — ya’ni dini ma’rifat va Uchinchi Renessans poydevori sifatida rivojlantirish strategiyasini ochib beradi.

Shunisi ahamiyatliki, forum shunchaki ilmiy uchrashuv emas, balki strategik maqsadlarga xizmat qiluvchi global platformadir. Ulardan eng muhimi — islom dinining sofligini himoya qilish. Forum dunyoga islom dini zo‘ravonlik emas, balki tinchlik va taraqqiyot dini ekanligini ilmiy asoslar bilan ko‘rsatib berishga qaratilgan.

Ilmiy integratsiya bu — forumdan ko‘zlangan yana bir maqsad. Jahondagi yetakchi tadqiqot markazlari bilan O‘zbekiston o‘rtasida qo‘lyozmalarni birgalikda o‘rganish bo‘yicha uzoq muddatli shartnomalar imzolalanishi esa vatanimizning xorijdagi merosini qaytarish, birgalikda tadqiqotlar o‘tkazish va soxta ma’lumotlarga barham berish nuqtayi nazaridan juda muhim. Bundan tashqari, nufuzli forum O‘zbekistonni dunyoga ma’rifiy turizm va

islomshunoslik ilmining bosh markazlaridan biri sifatida qayta tanitadi.

Shu o‘rinda yana bir mulohaza. Ko‘pchilikda “Bunday yirik xalqaro forumlarning oddiy odamlar hayotiga, kundalik turmushimizga qanday daxli bor?”, degan tabiiy savol tug‘ilishi mumkin. Aslida, bu anjuman va uning negizida turgan Islom sivilizatsiyasi markazi har bir o‘zbekistonlikning hayotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, farzandlarimiz tarbiyasi va xavfsizligiga. Bugungi globallashuv va internet asrida yoshlarimizni turli yot g‘oyalardan ekstremistik oqimlar va adashishlardan asrash eng muhim masalaga aylandi. Forumda ilgari surilgan sof diniy ma’rifat va ajdodlarimizning haqiqiy ilmiy merosi yoshlarimiz uchun kuchli ma’naviy immunitet vazifasini o‘taydi. O‘g‘il va qizlarimiz islom dinini ijtimoiy tarmoqlardagi shubhali kimsalardan emas, balki Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi sof manbalardan o‘rganadi.

Bundan tashqari, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash masalasi bor. Mahallalarda, oilalarda farzandlarimizga “Biz kimlarning avlodimiz?”, degan savolga oddiy va yorqin javob paydo ilm-fan, kitobxonlik va vatanparvarlikka havasni uyg‘otadi. Bu kundalik hayotda farzandlarimizni telefonga qaram bo‘lishdan yiroqlashtirib, kitob va ilmga yuzlanishiga yordam beradi.

Oilalardagi tinchlik va bag‘rikenglik muhiti — bu ham forumning uzoq muddatli ta’siri natijasi bo‘ladi. Islom sivilizatsiyasining eng bosh g‘oyasi — ahillik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat va oila muqaddasligidir. Forumda tag‘ib etilgan ma’naviy qadriyatlar jamiyatimizdagi oilaviy ajrimlar kamayishi, oilaviy muhit sog‘lomlashishi va qo‘shnichilik rishtalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bu kabi tadbirlar mamlakatimizda ziyorat turizmini yangi bosqichga olib chiqadi. Dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan sayyohlar oqimi kundalik hayotimizda yangi mehmonxonalar, restoranlar, milliy hunarmandchilik do‘konlari ochilishi va minglab yurtidoshlarimiz uchun daromadli ish o‘rinlari yaratilishiga zamin bo‘ladi.

Bunday keng ko‘lamli anjumanni o‘tkazish va unga ketadigan xarajatlarni shunchaki “tadbirbozlik” emas, balki davlatning uzoq muddatli siyosiy, iqtisodiy va geostrategik manfaatlariga tikilgan yirik investitsiyadir.

Dunyo tajribasida bu “yumshoq kuch” diplomatiyasi deb ataladi. Xususan, mamlakatimizning islom olamining yangi yetakchisi sifatida tan olinishiga xizmat qiladiki, bunday nufuz O‘zbekiston geosiyosiy salohiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, agar dunyodagi musulmonlarning katta nufusini hisobga oladigan bo‘lsak, bu qadar yirik markaz va forum orqali O‘zbekiston Saudiya Arabistoni, Misr va Turkiya kabi davlatlar qatorida islom dunyosining asosiy intellektual va madaniy markaziga aylanmoqda.

Qolaversa, xalqaro maydondagi ishonch masalasi ham bor. O‘zbekiston o‘zini mintaqamizda “sof va ma’rifiy islom”ni himoya qiluvchi xavfsiz, barqaror va bag‘rikeng davlat sifatida ko‘rsatmoqda. Bu esa BMT, UNESCO va ICESCO kabi global tashkilotlar oldida mamlakatning siyosiy vaznini keskin oshiradi.

Bundan tashqari, forumning to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtisodiy foydalari borki, buni ham tilga olmay iloj yo‘q. Ziyorat turizmining keskin yuksalishi shular jumlasidan. Gap shundaki, forumga kelgan 300 nafar eng nufuzli olim va vazirlar o‘z mamlakatlarida millionlab dindorlar uchun fikrlar yetakchisi hisoblanadi. Ularning O‘zbekiston haqidagi jiboyi fikri ortidan yurtimizga yuz minglab yangi ziyoratchi sayyohlar keladi. Sayyohlar olib keladigan valyuta mehmonxonalar, restoranlar, transport va aviatsiya tizimi orqali davlat byudjetiga soliq bo‘lib qaytadi va xarajatlarni bir necha barobar qilib oqlaydi. Madaniy va diniy jihatdan barqaror, tarixi boy davlatga xorijlik investorlar ancha xotirjam pul tikadi. Islom sivilizatsiyasi markazi kabi nufuzli majmualar O‘zbekistonning “tashrif qog‘oz” va investitsiya forumlari uchun asosiy driver bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni ham qo‘shimcha qilish kerakki, yoshlar orasida diniy radikalashuv, din niqobidagi jinoyatchilik va adashillar davlat uchun juda qimmatga tushadi. Forum va Islom sivilizatsiyasi markazi tag‘ib qildigan “ilm va ma’rifat” g‘oyasi jamiyatni ichidan sog‘lomlashtiradi. Ideologik xavfsizlikni ta’minlash orqali davlat kelajakdagi milliardlab yo‘qotishlarning oldini oladi.

Forumning yana bir jihati borki, uni ham yurtimiz uchun bevosita foyda keltiradigan omil sifatida aytish joiz. Noyob qo‘lyozmalar — bebaho aktiv. Dunyo fondlarida Markaziy Osiyodan olib ketilgan o‘n minglab noyob qo‘lyozmalar saqlanadi. Ularning asl nusxalari yoki raqamli fondlarni O‘zbekistonga qaytarish millionlab dollar turadi. Forum doirasida tuziladigan memorandumlar orqali bu ilmiy meros yurtimizga bepul yoki imtiyozli asosda taqdim etiladi. Bu esa milliy boyligimizni kapitalizatsiya qilishni anglatadi.

Forumga sarflangan kuch, vaqt va mablag‘ — bu shunchaki bir necha kunlik xarajat emas, balki O‘zbekistonning xalqaro obro‘si, turizm sektori va milliy xavfsizligi uchun tikilgan uzoq muddatli strategik kapitaldir.

7-12-iyul kunlari Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) hamkorligida tashkil etilgan forum dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan yetuk olim, mutafakkir va tadqiqotchilarni jamlagan nufuzli ilmiy va intellektual maydon vazifasini o‘tadi. Unda islom sivilizatsiyasining insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hisssasi, zamonaviy muammolar va kelajak istiqbollari muhokama qilindi.

Bu tashrif oddiy xalqaro konferensiya ishtirok etishdan ancha yuksak ma’noga ega edi. Bu men uchun islom tarixi bag‘riga sayohat, ilm-fan va buyuk sivilizatsiya bilan nom qozongan yurti o‘z ko‘zim bilan ko‘rish imkoniyati bo‘ldi. Poytaxt Toshkent hamda tarixiy Samarqand shahrini ziyorat qildim.

Doktor Muhammad
Shahim Ali SAID,
Maldiv Respublikasi Islom
ishlari vaziri

Bu qadimiy shaharlarning har bir ko‘chasi va me’moriy obidalari islom sivilizatsiyasining ulug‘vorligi hamda uning ilmiy va madaniy merosi haqida hikoya qiladi.

Ushbu safarning eng ta’sirli jihati shundaki, u talabalik davrimdan beri qalbmida saqlab

kelgan orzumning ushlishi bo‘ldi. Islom tarixini o‘rganar ekanman, Samarqand, Buxoro va Termiz haqida ko‘p mutolaa qilganman, bu buyuk shaharlarda voyaga yetgan ulug‘ allomalar va ularning islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hisssasi haqida chuqur o‘yga tolganman. Bir kun kelib, muborak maskanlarni ziyorat qilish orzum edi. Tarix kitoblarida o‘qiganim muqaddas manzillarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rish qalbimni chuqur hayajonga soldi.

O‘zbekiston nomi tilga olinganda, inson beixtiyor buyuk allomalar va muhaddislar yurtini eslaydi. Bu zamin islom ilm-fani tarixida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ zotlarning vatani. Ular orasida Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Abu Iso at-Termiziy va boshqa ko‘plab buyuk olimlar bor. Ularning ilmiy merosi asrlar davomida musulmon ummati



“

Safarimning eng unutilmas jihatlaridan yana biri o‘zbek xalqining samimiy mehmondo‘stligi bo‘ldi. Men mehr-oqibatni, o‘zaro hurmatni, yuksak odob-axloqni hamda islomiy qadriyatlarni o‘z milliy an‘analari bilan uyg‘unlashtirgan jamiyatni ko‘rdim.

uchun hidoyat va ma’rifat manbai bo‘lib kelmoqda.

Ayniqsa, O‘zbekiston rahbariyatining ushbu buyuk sivilizatsiya merosini asrash va qayta tiklash yo‘lidagi ulkan sa’y-harakatlari chuqur taassurot qoldirdi. Tarixiy obidalarni ta’minlash, ilmiy va tadqiqot muassasalarini rivojlantirish

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока”
gazetalari tahririyati” DMMUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar MahkamasiBosh muharrir:
Salim DONIYOROVQabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyatga kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.E-mail: info@yuz.uz
Be6-cafr: www.yuz.uz: (71) 233-47-05Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Xurshid AbdullayevManzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy